

XORAZMLIK KANDAKOR USTALAR TARIXI**Furqat Rahimov**

“Ichon-Qal’a” davlat muzey-qoʻriqxonasi “Xorazm hunarmandchilik tarixi” boʻlimi
katta ilmiy hodimi

Annotatsiya

Ushbu maqola Xorazmlik kandakor ustalar tarixi haqida soʻz yuritilgan. Kandakorlik misgarlik bilan chambarschas bogʻliq sohadir, misgarlikda mis buyumlarni misgarlar yasaganlar, kandakorlar esa mis buyumlarga naqshlarni poʻlat qalamlar bilan kesib yaratadilar.

Kalit soʻzlar: kandakorlar, madaniyat, Xorazm, misgarlik, hunarmandchilik, meʼmorchilik, temirchilik, zargar, amaliy sanʼat.

Qadimda metaldan ishlangan badiiy buyumlarning turli xillari orasida Markaziy Osiyoda kandakorlik buyumlari ustalar tamonidan zargarona ishlanib, hozirda oʻzining ikkinchi umrini yashamoqda. Oʻz kasbini sidqidildan sevgan insongina usta boʻlib yetishadi. Oʻz davrida, bir vaqtda ular misgar, rihtagar, naqqosh va sanʼatkor rassom edilar. Bu usta sanʼatkorlar xalq orasida kandakorlar deyilgan. Kandakorlik forscha-“kandakori” soʻzidan olingan boʻlib, kesma degan maʼnoni bildiradi. Kandakorlik misgarlik bilan chambarschas bogʻliq sohadir, visgarlikda mis buyumlarni misgarlar yasaganlar, kandakorlar esa mis buyumlarga naqshlarni poʻlat qalamlar bilan kesib yaratadilar.

Xorazm madaniyati va aholisining xarakteri jihatidan Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridan farq qiladi, chunki VIII asrda arablar bostirib kelganda Xorazmning qadimiy aholisi boshqa qoʻshni hududlaridan urf-odat, kiyim-kechak, tili bilan ajralib turadi. Oʻsha davr Xorazm tili boshqa qoʻshni xalqlar tiliga oʻxshamagan, yozuvi ham farq qilgan. Moʻgʻillar istilosi madaniyat rivojlanishini va hoʻjalik taraqqiyotini keskin kesib qoʻyadi, sharqiy va shimoliy moʻgʻul-turk qabilalarini Xorazm hududiga koʻchishi boshlangan. XIII-XIV asrlar davomida Xorazmda qadimiy Xorazm tili saqlanib qoladi, shu davrdagi oʻzaro urushlar voha aholisini koʻpayishiga salbiy taʼsir qilgan, hunarmandchilik inqirozga uchragan, bu inqiroz XIX asrning boshlarigacha, to qadimiy Xorazm yerida markazlashgan hokimiyat tiklanguncha davom qilgan, 1804 yilda taxtga Qoʻngʻirot sulolasidan chiqqan xonlar kelishi bilan, Xorazm xonligining markazi boʻlgan Xivada katta hajmdagi qurilish ishlari olib borildi, minglab hunarmandlar ishlab chiqarish bilan band boʻldilar, asta-sekin koʻp tilli xalqlar turkiylashib, turkey boʻldilar, lekin qadimiy Xorazmliklar moddiy madaniyatning oʻziga xos xususiyatlari, ayrim sohalarda, hozirgacha saqlanib qolgan, ayniqsa shahar va qishloq meʼmorchilik shakli va bezaklarida, hunarmandchilik mahsulotlarining nafosatligida yaqqol koʻzga tashlanadi. Ularda mahalliy ustalarning shaxsiy mahorati, mahalliy xalqning badiiy didi bilan birgalikda kuylanadi, shuning uchun ham XIX asr ohiri XX asr boshlarida yaratilgan, Xorazm badiiy kulolchilik, miskarlik, kandakorlik, temirchilik va boshqa amaliy sanʼat mahsulotlari Markaziy Osiyodagi boshqa hudud mahsulotlaridan tubdan farq qiladi.

XIX asr ohiri XX asr boshlarida Xorazmda Xilma-xil mis buyumlar ishlab chiqarilgan, ular Xorazm, Farg`ona, Buxoro, Samarqand va boshqa hududlarning hunarmandchilik mahsulotlaridan va naqshlangan buyumlaridan tubdan farq qilib, metallsozlikda yetuk ustalar Xiva, Xonqa, Mang`it, Ko`hna Urganch, Qo`ng`irot kabi qal`alarda ijod qilib Xorazmda temirga ishlov berish va kandakorlik maktabi bunyodga kelishida o`zlarining katta xissalarini qo`shganlar.

XX asr boshlarida Xorazm kandakorlari naqsh zaminini qora yoki qizil lak bilan bo`yaganlar. Kandakor ustalar asosan islami naqshlarni ko`p qo`llaydilar. Aylanma islami ommaviy naqsh hisoblandi. Xorazmlik kandakorlar islami, murakkab islami, madohili, murakkab aylanma islami kabi naqshlar bilan buyumlarni bezaydilar. Geometrik naqshlardan cheton yoki katakni keng qo`llaydilar. Kandakorlikda bolg`a sandal, iskana, qalam, hal kabi asbob-uskunalar ishlatiladi.

Xivaning suv uchun qo`llanadigan qumg`on idishi mutlaqo original shaklga ega bo`lib, dastasiz, qorni noksimon va baland ingichka bo`yinlidir. Marhum kandakor, pichoqchi va ganch ustasi Bakdurdi usta qumg`onni shunday ta`riflaydi: - “Xorazmda Xiva qumg`onini mejanaga o`xshatishadi, “mejana – o`rik danagining ichidagi mag`zi” undan tashqari chiroyli qizlarni ham “mejanadin ekan” deb ta`riflashadi, Xiva qumg`oni ham xuddi qizlarning qaddi-qomati va go`zalligiga o`xshagani uchun, mejanaga o`xshatishadi, Xorazmning kopqog`i yo`q, bozorboq, oddiy, sirti oq qalay bilan oqlangan, hajmi jihatidan Xiva qumg`onidan kattaroq bo`lgan – oqqumg`on – “Urganji” yoki oddiygina oq qumg`on deb nomlanadi”.

Kichkina mis va jezdan ishlangan nos shishalar shakli jihatidan ham originals bo`lib, respublikamizning boshqa hududlarida uchramaydi, uning yumaloq, yapaloq, ingichka bo`yni bo`lib, yon tamonidagi kichik xalqachasimon belboqqa o`tkazib qo`yiladigan kanalcha o`tqaziladi. Bu mis va jez nos shishalar o`zining bezalishi bilan ajralib turmaydi, ularda kandakori o`rniga chizma uslubni qo`llaganlar. Naqshlarga jilo berish uchun uning zamini kichkina chekma gullar bilan bezalgan.

Xorazmning qadimiy naqshlangan buyumlari xushbichim va serhasham bo`lib, kandakorlar naqshlarida rangdor bo`yoqni ham, har xil koplamani ham qo`llamaganlar. Ana shularga qarab turib beixtiyor S.P.Tolstovning Xorazmning qadimiyqadimiy san`atiga bergan ta`rifini xotirlaysan, u shunday deb yozgan edi: - “Xorazm san`ati g`oyatda oddiy va o`zining ta`sirchan vositalari behasham, shu bilan bir qatorda ma`nodordir, So`g`dning nazokatli san`atiga nisbatan birmuncha ko`rrimliroqdir”.

Islom talablariga bo`ysunish oqibatida jonivor, paranda, odamlarni tasvirlash yo`qolib, o`rniga boshqa yo`nalish kirib keldi. Musavvir ustalar endi tabiatni, gullarni, girex naqshlarni aks ettira boshladilar.

Xullas tasviriy san`at yo`qolib, o`rniga yangi uslub amaliy san`at turi kirib keldi. Naqshlar brogan sayin murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalar: - ramz, timsol, duo-afsunlar, tilaklarni aks ettirgan naqshlar taboro rivojlandi.

Har bir naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan va har xil shaklda chizilgan. Naqshning eng qadimgi turi madoxil – uch barg, ramziy ma'nosi dunyoning abadiyligi, yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ish degan ma'noni anglatadi. Islimiy naqshlar juda ko'p joylarda ishlatilib, turli ma'nolarni anglatadi. Hoshiya islim, butov islim, turunj islim bu bir-biriga chirmashib ketuvchi cheksiz, naqsh turi boylik va faravonlik ramzini anglatadi.

Geometrik naqshlar – gireh deb nomlanadi. Gireh –forsch, chigal, tugun degan ma'nolarni anglatadi. To'rtburchak, uchburchak, aylana va boshqa chiziqlardantashkil topadi.

Xorazm vohasi qadimdan yirik badiiy hunarmandchilik maskani bo'lgan, bu yerda har bir usta bir necha hunarni egasi bo'lgan. Bu hol Xorazm hunarmandlari uchun an'anaviy hisoblanadi. Biz shajaralarni ko'rishimizda bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi.

Muhammadpano: - yetuk ko'p qirrali san'atkor bo'lgan, u xon saroyida ishlagan, N.I.Gradekovning yozishicha “Matpano xon zambaraklariga xusnixat va naqshlarni simkori qilishda unga teng keladigan usta bo'lmagan”. Uning o'g'li Xudaybergan ham kandakor, bastakor bo'lgan, shu bilan birga, u husnixat, muhrkan, rixtagar, soatsoz bo'lgan.

Xudaybergan Muhrkan: - 1822 yilda Xiva shahrida Bobokarvonboshi qavmida, to'p quyuvchi usta Muhammadpano oilasida tug'ilga. Otasidan to'p quyushni, usta Ermon xalfadan xattotlikni, usta Islom xo'jadan muhrkanlikni o'rgangan. Xudaybergan Muhrkan xon saroyida devon lavozimida ishlagani uchun “devon”, davlat zarbxonasida tanga pullar uchun qoliplar va muhrlar yasagani uchun “muhrkan” nomlariga sazavor bo'lgan. U mohir kandakor ham bo'lgan. Xudaybergan muhrkan mustaqil ijod qilib o'z davrining taniqli maqomchisi darajasiga ko'tarilgan, u yaxshigina musiqa asboblari yasagan va tuzatgan hamda ularni nafis naqshlar bilan bezagan. Komil Xorazmiyning “Tanbur chizig'i” nomli nota kitobini ko'chirgan, o'zi ham “Rost” maqomiga “Saqli muhrkan” nomi bilan kuy bastalagan.

Naql qilishlaricha, bir kuni Muhammad Rahimxon II Xudaybergan Muhrkanni huzuriga chorlab saroy kutubxonasidagi kitoblarni ko'rsatib, bu kitoblarni qayta ko'chirishga qancha xattot kerak yoki bularning o'zingiz qayta ko'chirib berasizmi? degan, shunda Xudaybergan Muhrkan bu kitoblarni ko'chirishga bir odamni umri etmas, bu kitoblar yaqin 100 yillar ichida ko'chirilgan bo'lishi kerak degan. Shunda xon, qani kitoblarni bir ko'zdan kechiringchi degan. Xudaybergan Muhrkan qarasa kutubxonadagi kitoblarning 80 foizi o'zi tamonidan ko'chirilgan ekan. Hozirgi kunda bu kitoblarning ko'pchiligi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

1864-yilda Muhammad Rahimxon II Feruzning taxtga chiqishi munosabati Ogahiy “Qasidai nasihat” ni yozgan. Madrimxon Xorazmning mashhur o'ymakori Xudaybergan muhrkonga bu qasidani marmar toshga bitishni buyurgan. Usta bu ishni nihoyatda mohirona bajarib, xonga taqdim etgan va xondan in'omlar olgan.

Muhammadpano – muhrkan, rixtagar, simkori usta.

O'g'li:

Xudaybergan Muhrkan Matchanov – Xattot, muhrkan, kandakor, rixtagar, sangtarosh, simkori ustasi, mohir bastakor.

O'g'illari:

Sobirjon, Rahmonbergan, Yusuf, Matpano- Xattot, toshtarosh, kandakor, bastakor.

Karimbergan Rahmonbergan o'g'li (1870-1959)- muhrkan, marmar va metallga o'yma naqsh soluvchi, musiqachi.

Ustaning ko'pgina ishlari Xiva shahrida qurilgan obidalar peshtoqlarini bezab turubdi. Jumladan: Islom Xo'ja minorasi va madrasasida (1910y), Isfandiyorxonning harami va qabulxonasida (1912y), Yusuf Yasavulboshi (1906y), Polvon qori (1906y), madrasasida va Sayyid Mohi Ro'yi jahon maqbarasida uning qo'li bilan ishlangan, nihoyatda chiroyli yozuvlar va naqshlar bilan bezatilgan marmar taxtalar, o'ratosh (poyustun) lar undan yodgorlik bo'lib turubdi.

Usta 1920 yilda 98 yoshida vafot etgan, undan bir qancha shogird va farzandlar yodgor qolgan. Ulardan Sobirjon Xudaybergan o'g'li, Karimbergan Rahmonbergan o'g'li, Komil Devoniylar ota-bobolari kasbini davom qildirib, -mashhur usta bo'lib etishganlar.

Karimbergan Rahimbergan o'g'li (1870-1959) muhrkan, marmar va metallga o'yma naqsh soluvchi, musiqachi. Sangar qishlog'ida hunarmand usta Xudaybergan Muhrkan Muhammad Panoh o'g'li oilasida tug'ilgan. Bobosi Xudaybergan Muhrkanga yordamlashib yurib, o'ymakorlik san'atini o'rganadi. O'smirlik yillarida bobosi bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II va Isfandiyorxonlarning hovli saroyidagi, Qibla va Orqa toza bog', Kohna Ark va Islom Xo'ja madrasasidagi ayvonlarga marmardan o'yma naqshli o'ratosh (poyustun) lar ishlagan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Zohidov P.Sh. Me'mor san'ati. T. 1978.
2. K.Xudayberganov. "Yozuvlarga yashiringan tarix" Xiva 1996 yil.
3. K.Xudayberganov. "Xiva Dunyodagi eng ko'xna qal'a" Toshkent 2012 yil.
4. D.Bobojonov. M. Abdullayev. "Xorazm amaliy san'at ustalari". Xiva-2010.